



## YANGI O‘ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARADORLIK OMILLARI

**Shodmonqulova Muborak Maxamatqulovna**

*Guliston davlat universiteti dotsenti,*

**Muhammedova Iroda Asliddin qizi**

*tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

Email: [muborakshodmonqulova@gmail.com](mailto:muborakshodmonqulova@gmail.com)

Tel: +998 99 826 91 61

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning nazariy asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash hamda fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *davlat boshqaruvi, islohotlar, ochiqlik, shaffoflik, elektron hukumat, samaradorlik, iqtisodiy o‘shish, soddalashtirish, byurokratiya. optimallashtirish.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются реформы, проводимые в системе государственного управления в Новом Узбекистане, их теоретические основы и практические результаты. Также рассматриваются вопросы повышения эффективности государственных услуг, обеспечения открытости и прозрачности, а также развития сотрудничества с гражданским обществом.*

**Ключевые слова:** *государственное управление, реформы, открытость, прозрачность, электронное правительство, эффективность, экономический рост, упрощение, бюрократия, оптимизация.*

**Annotation:** *This article analyzes the reforms being implemented in the public administration system in the New Uzbekistan, their theoretical foundations, and practical results. It also examines issues of improving the efficiency of public services, ensuring openness and transparency, and developing cooperation with civil society.*

**Keywords:** *public administration, reforms, openness, transparency, e-government, efficiency, economic growth, simplification, bureaucracy. optimization.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri - davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish hisoblanadi. Zamonaviy bosqichda davlat boshqaruvi samaradorligi bevosita jamiyat rivoji, iqtisodiy o‘shish va fuqarolarning turmush darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Aslida esa, avvalo, inson uning haqu-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim”[1:67]. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvini



modernizatsiya qilish, uni ochiq va samarali tizimga aylantirish zaruratini belgilab beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan islohotlar:

institutsional o‘zgarishlar;

raqamli boshqaruv tizimlari;

davlat xizmatlarini soddalashtirish; kabi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish zamonaviy siyosatshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Siyosatshunos olimlar fikricha, samarali boshqaruv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

ochiqlik va shaffoflik;

javobgarlik;

samaradorlik;

fuqarolar bilan muloqot;

Professor Abdurahim Erkayev davlat boshqaruvida “Davlat boshqaruvida Iqtisodiyot va ma’naviyat erkin rivojlanishi uchun siyosiy tuzum demokratik bo‘lishi, jamiyatda qonun ustuvorligi va hammaga birday majburiyligi ta’minlanishi lozim” deb izohlaydi[2:310].

Shuningdek, G‘arb siyosatshunosligida “good governance” tushunchasi davlat boshqaruvining sifat ko‘rsatkichlarini belgilab beradi [6:134].

**Normativ-huquqiy asoslar va islohotlar.** Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi islohotlari mustahkam huquqiy asosga ega. Xususan: 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, davlat xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha farmonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident farmonlarida davlat boshqaruvini optimallashtirish, byurokratiyani qisqartirish va samaradorlikni oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3:2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy bazaning mustahkamligi islohotlar samaradorligining asosiy omillaridan biridir [7:58].

**3. Davlat xizmatlari va “elektron hukumat”** Raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. “Elektron hukumat” tizimi orqali:

davlat xizmatlari tezkor ko‘rsatiladi;

inson omili kamayadi;

korrupsiya xavfi pasayadi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada shunday deydi: “Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot elektron savdo va servis bilan cheklanmasdan ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarni ham qamrab olmoqda” [1:177].

Mahalliy mutaxassislar fikricha, raqamli boshqaruv tizimi davlat va jamiyat o‘rtasidagi masofani qisqartiradi<sup>96</sup>.

<sup>96</sup> <https://infocom.uz/articles/raqamli-xizmatlar-va-davlat-boshqaruvi.20.04.2026>.



**4. Davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot.** Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvining muhim jihatlaridan biri - fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishdir.

Bu borada:

virtual qabulxonalar;

jamoatchilik eshituvlari;

ochiq ma'lumotlar portallari kabi mexanizmlar joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Davlat organlari - xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi degan tamoyilning bugungi hayotimiz, islohotlar jarayonidagi o'rni va ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi" deb bejiz aytmagan[1:24]. Bu tamoyil boshqaruv tizimini demokratlashtirishga xizmat qiladi.

**5. Davlat boshqaruvida samaradorlik omillari.** Samarali davlat boshqaruvi quyidagi omillarga bog'liq:

kadrlar salohiyati;

boshqaruv texnologiyalari;

institutsional tizimning mukammalligi.

Siyosatshunos olimlar fikricha, "Meritokratiya davlat boshqaruvida sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi mezonlardan biridir. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab "davlat xalq uchun xizmat qiladi" degan tamoyil asosida, davlat xizmatini professional, shaffof va natijador tizimga aylantirish strategik vazifaga aylantirildi" [5]. Shuningdek, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

**6. Islohotlarning natijalari va muammolari.** Amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

davlat xizmatlari sifati oshdi;

byurokratik to'siqlar kamaydi;

fuqarolar ishonchi ortdi;

Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

hududlar o'rtasida farqlar;

kadrlar yetishmasligi;

raqamli savodxonlik darajasi pastligi Bu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur [8:142].

**7. Davlat boshqaruvi islohotlarining istiqbollari.** Kelgusida davlat boshqaruvi quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi:

to'liq raqamlashtirish;

sun'iy intellektdan foydalanish;

ochiq boshqaruv tizimini rivojlantirish;

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, islohotlarning izchilligi va tizimliliigi ularning samaradorligini ta'minlaydi.



Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosat:

ochiq boshqaruvni ta’minlash;

fuqarolar manfaatlarini himoya qilish;

samaradorlikni oshirish ga qaratilgan.

Kelgusida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash zarur. Shunday qilib, davlat boshqaruvi islohotlari Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategik asosini tashkil etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 480 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari to‘plami. – Toshkent, 2017–2023.
5. Bekchanov D. “Institutionalizing Meritocracy in Uzbekistan’s Civil Service Reform”, European Governance Review, Brussels, 2021.// <https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2021/06/22/uzbekistans-new-formativepersonnel-policy-in-state-governance>
6. Fukuyama F. The End of History and the Last Man. – New York: Free Press, 1992. – 418 p.
7. Abdullayev Yo. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 312 b.
8. To‘xtayev B. Globallashuv va milliy taraqqiyot. – Toshkent: Fan, 2022. – 220 b.